



## O'zbekiston Respublikasida sanoat ishlab chiqarishi


2025- yil yanvar-mart oylari uchun

- I. Samarqand viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni
- II. Samarqand viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes tadbirdorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

### I. Samarqand viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni

2025-yilning 1-aprel holatiga ko'ra viloyatimizda 4 670 ta sanoat korxonalari faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu sanoat korxonalari soni asasosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanganda yuqori ulush 1 140 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiyligi sonining 24,4 % i) oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga, 706 tasi (15,1 %) boshqa nometal mineral mahsulotlar ishlab chiqarishga, 379 tasi (8,1 %) kiyim ishlab chiqarishga, 428 tasi (9,2 %) mashina va uskunalardan tashqari tayyor metal buyumlar ishlab chiqarishga va 342 tasi (7,3 %) mebel ishlab chiqarishga to'g'ri kelmoqda.

Korxonalar soni  
1-aprel holatiga ko'ra





## **II. Samarqand viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari tumanlar kesimida**

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2025-yilning yanvar-mart oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 10 063,5 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2024-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 105,0 % ni tashkil etdi.

	Hajmi, mlrd so'm	Fizik hajm indeksi, % da
<b>Samarqand viloyati</b>	10 063,5	105,0
Samarqand sh	3 613,5	105,0
Kattaqo'rg'on sh <i>tumanlar:</i>	214,5	115,6
Oqdaryo	238,5	117,3
Bulung'ur	171,0	102,5
Jomboy	961,6	101,4
Ishtixon	302,5	104,3
Kattaqo'rg'on	476,6	110,5
Qo'shrabot	42,9	106,2
Narpay	280,3	109,0
Payariq	82,5	51,3
Pastdarg'om	406,6	114,5
Paxtachi	135,3	61,8
Samarqand	649,3	107,4
Nurobod	103,8	102,8
Urgut	719,0	106,4
Toyloq	662,0	109,5

### **Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)  
[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)


## **Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish**

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalarini joylashganligi hisobiga Samarqand shahrida (6 053,3 ming so'm), Jomboy tumanida (4 941,1 ming so'm), Toyloq tumanida (2 919,2 ming so'm), Samarqand tumanida (2 326,0 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (2 336,0 ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda.



Shuningdek, viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 102,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, Kattaqo'rg'on shahrida (114,3 %), Oqdaryo tumanida (114,7 %), Pastdarg'om tumanida (112,0 %) qayd etilib viloyat ko'rsatkichidan ancha yuqori natija qayd etilmoqda.


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi  
*yanvar-mart oylarida*



### Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2025-yilning yanvar-mart oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 9 723,0 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (96,6 %)ni tashkil etgan holda Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 51,0 mlrd so'm (0,5 %), Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 215,7 mlrd so'm (2,2 %) hamda Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 73,8 mlrd so'm (0,7 %) ni tashkil etdi.

Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab ishlab chiqarish hajmi,  
jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi  
*2025-yilning yanvar-mart oylarida*



### **III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

2025-yilning yanvar-mart oylarida viloyatda 39 192,9 tonna chaqiq tosh (2024 yilning yanvar-mart oyiga nisbatan 55,1 % ga kamaygan), 6 397,0 tonna ip kalava (7,0 % ga koʻpaygan), 2 878,9 ming litr pivo mahsulotlari (17,7 % ga kamaygan) hamda 7 986,8 ming metr kvadrat gilam va gilam maxsulotlari (9,3 % ga koʻpaygan) ishlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-mart*	2024-yil yanvar-mart*	2025-yil yanvar-mart
Avtobus, dona	200	127	85
Yuk avtomobilari, dona	557	720	791
Portlandsement, ming t	-	192,0	491,7
Konyak spirti, ming litr	134,3	55,0	27,0
Paxta tolasi, ming t	20,2	18,4	13,7
Gilam va gilam maxsulotlari,	5 926,1	7 307,3	7 986,8



ming m kv

O'simlik yog'i (tozalangan),t	9 437,0	13 858,0	17 705,0
Kunjara va qattiq chiqindilar, ming t	23,8	29,5	32,1

\*2023-2024 yillarning yanvar-mart oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan


**Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**  
[Sanoat ishlab chiqarish hajmlar \(yillik\)](#)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 40,5 % (2024-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 107,5 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 3,0 % (2024-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 103,1 %)ni tashkil etdi.

**Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi**

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,7 % ni (2024-yilning yanvar-mart oylarida 0,7 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 11,9 % (12,6 %), o'rta-quyi texnologiyali – 20,3 % (21,4 %), quyi texnologiyali 63,3 % (62,4 %)ni tashkil etgan.





### **Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi**

2025-yilning yanvar-mart oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektr energiya ishlab chiqarish 131,3 % ni tashkil etdi.

<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>2023-yil yanvar-mart*</b>	<b>2024-yil yanvar-mart*</b>	<b>2025-yil yanvar-mart</b>
Jami ishlab chiqarilgan elektr energiya, mln kvt.s	24,5	38,3	42,1
<i>shundan:</i>			
yirik korxonalar tomonidan (hisobot ma'lumotlariga asosan)	24,5	37,7	41,2
<i>kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan (kuzatuv ma'lumotlariga asosan)</i>			
Issiqlik energiyasi, ming gkal	1,4	-	-

### **Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi**

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv qovurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 22,6 % ga ko'payish, Kanalizatsiya loylarini tozalash bo'yicha xizmatlarda 8,9 % ga ko'payish kuzatildi. Shuningdek, plastmassa chiqindilari yig'ish bo'yicha xizmatlarda 6,5 % ga ko'payish kuzatildi.

<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>2023-yil yanvar-mart*</b>	<b>2024-yil yanvar-mart*</b>	<b>2025-yil yanvar-mart</b>
Suvga ishlov berish va suv qovurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar mln so'm	23 289,5	29 134,2	35 721,8
Kanalizatsiya loylarini tozalash bo'yicha xizmatlar, mln so'm	10 848,3	15 871,2	17 282,3




Plastmassa chiqindilari,t	597,6	681,1	725,5
---------------------------	-------	-------	-------

\*2023-2024-yillarning yanvar-mart oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

#### **IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi**

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 4 681,4 mlrd so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiyligi ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 46,5 % ni tashkil etdi. 2024-yilning yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlarining umumiyligi ishlab chiqarishdagi ulushi 47,7 % ni tashkil etgan.



#### **V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar**

**Sanoat bu** – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

#### **Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)**

**Sanoat ishlab chiqarishi hajmi** to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E



seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik sub'ektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuvi ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuvi materiallari.

**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

### Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

**Fizik hajm indeksini hisoblash** deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatlari o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

**Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi** asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

- B** - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash
- C** - Ishlab chiqarish sanoati
- D** - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
- E** - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

### Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiyy-hajmi-qiyomatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiglash-to-g-risida>

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/477-erbfgeheh5446456>